



TOSHKENT SHAHAR
STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT
SHAHRINING
DEMOGRAFIK HOLATI

*2023- yil
yanvar-dekabr*





TOSHKENT SHAHRINING DOIMIY AHOLISI

2024- yil 1- yanvar holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Toshkent shahrida 2024- yil 1- yanvar holatiga doimiy aholi soni **3 040,8** ming kishini tashkil etib, yil boshidan **84,4** ming kishiga yoki **102,9 %** ga ko'paydi.

Doimiy aholi soni

3 040,8 ming kishi

Tabiiy o'sish

+59,4 ming kishi

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2024- yil 1-yanvar holatiga

Erkaklar

49,1 %



1492,0 ming kishi

Ayollar


50,9 %




1548,8 ming kishi

Hududlar kesimida doimiy aholi

sonining taqsimlanishi, ming kishi




Toshkent shahri bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2024- yil 1-yanvar holatiga (foizda)



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, Toshkent shahar doimiy aholisi sonining **28,0 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **56,6 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar, va **15,4 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi
1- yanvar holatiga, ming kishi

	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	2956,4	3040,8	102,9
<i>hududlar:</i>			
Uchtepa	293,5	299,4	102,0
Bektemir	55,8	60,5	108,4
Yunusobod	367,0	376,1	102,5
Mirzo-Ulug'bek	323,1	331,2	102,5
Mirobod	149,5	152,2	101,8
Shayxontohur	360,6	365,4	101,3
Olmazor	395,1	404,4	102,4
Sergeli	162,3	168,2	103,6
Yakkasaroy	126,9	133,5	105,2
Yashnobod	289,5	300,1	103,7
Yangihayot	161,1	174,7	108,4
Chilonzor	272,0	275,1	101,1

**Toshkent shahri hududi Toshkent viloyati hududi hisobidan kengayishi natijasida aholi sonida sezilarli o'zgarish bo'lgan*

Tug'ilganlar soni

Ma'lumot uchun!: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

(Qiz bola):

38,7 ming kishi

(O'g'il bola):


36,3 ming kishi



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **75,0** mingta tug‘ilganlar qayd etilgan bo‘lib, shundan o‘g‘il bolalar **51,6** % ni, qiz bolalar **48,4** % ni tashkil etadi.

Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2023 yil yanvar-dekabr



2023- yilning yanvar - dekabr oylarida qayd etilgan tug‘ilishlarda 1 nafar va egizak tug‘ilgan chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi:


- 1 nafar – **97,5** %
- 2 nafar – **2,4** %
- 3 nafar va undan ortiq – **0,1** %

Tug‘ilish sonining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

yanvar-dekabr holatiga, kishi

	2022- yil	2023- yil	O‘ <i>sish sur’ati,</i> % da
Toshkent shahar	74036	75017	101,3
<i>hududlar:</i>			
Uchtepa	8693	7744	89,1
Bektemir	1647	3102	188,3
Yunusobod	9120	9818	107,7
Mirzo-Ulug‘bek	6526	6745	103,4
Mirobod	3321	2954	88,9
Shayxontohur	8437	7459	88,4
Olmazor	10623	10490	98,7
Sergeli	5399	2307	42,7
Yakkasaroy	3018	6862	227,4
Yashnobod	6576	5416	82,4
Yangihayot	3747	5744	153,3
Chilonzor	6929	6376	92,0

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **75,0** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va bundan keyin tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **25,0** promilleni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan minus **0,4** promillega kamaygan (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **25,4** promille bo‘lgan).




VAFOT ETGANLAR




2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **15,6** mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti **5,2** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan minus **0,5** promillega kamaygan (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **5,7** promille).

O‘limning asosiy sabablari bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-dekabr, kishi




Asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, % da)




2023- yilning yanvar - dekabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **58,7 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **13,9 %** i – o‘simtalardan, **6,1 %** i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **4,9 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,9 %** i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **2,6 %** i – yuqumli va parazitari kasalliklardan, **8,9 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **22,4** mingta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **7,5** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan minus **0,2** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **7,7** promille bo‘lgan).


NIKOHDAN AJRALISHLAR



2023- yil yanvar-dekabr oylarida **6,2** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **2,1** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,1** promillega ko‘payganligi kuzatildi (2022- yil yanvar-dekabr oylarida **2,0** promille bo‘lgan).

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-dekabr



2023- yil yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrida jami nikohdan ajrashganlarning **47,0** % i farzandsiz, **28,4** % i bitta farzand bilan va **24,6** % i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.


AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar)

2023- yil yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahar bo‘yicha doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar jami soni **94 542** kishini tashkil etdi. Doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni jami **69 541** kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini **25 001** kishini tashkil etadi. 2022- yilning mos davrida **36 399** kishi bo‘lgan.

Toshkent shahar bo'yicha ko'chib kelganlarning taqsimlanishi

2023- yil yanvar-dekabr, (ming kishi)




2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **94,5** mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **31,5** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **-2,5** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **34,0** promille bo'lgan).

Toshkent shahar bo'yicha ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

2023- yil yanvar-dekabr, (ming kishi)

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **69,5** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **23,2** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan minus **1,7** promillega ko'paygani kuzatildi (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **21,5** promille bo'lgan).



Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar

organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Tel: 71 203-88-23, 48